

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AXMEDOV OLIMJON SAMADOVICH

**QOVUSHQOQ-ELASTIK TO'LDIRUVCHILI ELLIPTIK QOBIQDA
GARMONIK TO'LQIN DIFRAKSIYASI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Axmedov Olimjon Samadovich

Qovushqoq-elastik to'ldiruvchili elliptik qobiqda garmonik to'lqin difraksiyasi....3

Ахмедов Олимжон Самадович

Дифракция гармонической волны в вязкоупругой эллиптической оболочке с
заполнителем21

Akhmedov Olimjon Samadovich

Diffraction of a harmonic wave by a viscoelastic elliptical shell with a filler41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AXMEDOV OLIMJON SAMADOVICH

**QOVUSHQOQ-ELASTIK TO'LDIRUVCHILI ELLIPTIK QOBIQDA
GARMONIK TO'LQIN DIFRAKSIYASI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/FM1356 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat texnika universiteti veb-saytida (www.bsti.uz) va "ZiyoNet" ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Teshaev Muhsin Xudoyberdiyevich
fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor.

Rasmiy opponentlar:

Mirzayev Ibraxim
fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Indiaminov Ravshan Shukurovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

**Qozog'iston Respublikasi Turkistan shahridagi
Xoja Ahmad Yassaviy nomli Xalqaro qozoq-turk
universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "23" yanvar kuni soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15 uy, 218-xona. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, e-mail: bsti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 411 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15 uy. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 7 yanvar kuni tarqatildi.

(2025 yil 28 oktyabrdagi № 9 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.S. Raxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
texnika fanlari doktori (DSc), professor.

R.A. Sobirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, fizika-matematika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD).

Z.I. Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-
matematika fanlari doktori (DSc), professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda ko'ndalang kesimi doiraviy halqa ko'rinishida bo'lmagan konstruksiyalarning dinamik holatini va tashqi kuchlar ta'sirida hosil bo'ladigan dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati muammolarini o'rganish hamda olingan natijalarni amaliyotda qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida yer osti kommunikatsiya quvurlari va tunnellarining tarkibiy elementi hisoblangan elastik hamda qovushqoq-elastik cho'zilma qatlamlarda yuzaga keladigan dinamik zo'riqishlar va deformatsiyalarni kamaytirish maqsadida, ulardagi to'lqinli yuklama dinamikasini o'rganish va baholash tadqiqotlari bu tizimni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan elliptik ko'ndalang kesimli silindrik ko'rinishdagi qobiqlar samolyotsozlikda, mashinasozlikda va texnikada keng qo'llanilganligi sababli, ularning tebranishlarini pasaytirishga sharoit yaratadigan ko'rsatkichlarning turg'unligini kafolatlash xususiyatiga ega bo'lgan uslubiyot ishlab chiqish va uning natijalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda muhit bilan ta'sirda bo'ladigan bo'lakli bir jinsli kesim shakli turli xil bo'lgan silindrsimon jismlarga to'lqinlarning ta'siri va yoyilish jarayonini tadqiq etish, ular keltirib chiqaradigan noxush holatlarni kamaytirish hamda deformatsiyaga moyil jismning chidamliligini oshirish masalalarini yechishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, bir jinsli bo'lmagan jismlarning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini ifodalovchi relaksatsiya yadrosi va uning parametrlarini tanlash hisobiga ko'ndalang kesimi turli shakldagi uzun silindrsimon jismlarning mustahkamligini oshirish hamda ularning yaroqlilik muddatini uzaytirish, resurstejamkor qurilmalarni ishlab chiqishga qaratilgan dinamik masalalarni yechishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda yer osti inshootlari (quvurlar va tunnellar)ning ko'ndalang kesimining turlicha bo'lishi ularga tushadigan seysmik kuchlar yuklanishiga ham turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ko'p qatlamli murakkab fizik xususiyatlarga ega hamda muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladigan silindrsimon polimer, temir-beton va metall qobiqlarning chidamliligini kuchaytirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida, jumladan, "...hududlarning "o'sish nuqtalari"dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e'tibor qaratish..."¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, qovushqoq-elastik muhitlarda joylashgan kesim shakli har xil bo'lgan to'ldiruvchili silindrsimon jismlar kuchlanishi va deformatsiya jarayonlarini ifodalovchi takomillashtirilgan matematik modellarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-sonli “O‘zbekiston Respublikasi seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2024-yil 17-apreldagi PQ-161-sonli “Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyat sohalariga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning mamlakat fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Ushbu ilmiy ish respublika fan va innovatsion texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika, inshootlar seysmik dinamikasi va axborot texnologiyalari» ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘ndalang kesim shakli ellips bo‘lgan qovushqoq-elastik inshootlar hamda ularning konstruktiv qismlarining tebranish jarayonlari, ulardagi to‘lqinlarning sinishi (difraksiyasi) va muhit bilan o‘zaro ta’sirda ularning xos tebranishlari muammosiga bog‘liq nazariy va tajribaviy ilmiy tadqiqot ishlari bilan dunyoning yetakchi universitetlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining taniqli olimlari: Ilyushin A.A., Brexovskix L.V., Viktorov I.A., Gorshkov A.G., Volmir A.S., Genkin M.D., Guz A.N., Grinchenko V.T., Shemyakin Ye.I., Komissarova G.L., Gogoladze V.G., Nigul U.K., Kiyko I.A., Troyanovskiy I.Ye., Molotkov L.A., Petrashen G.I., Novichkov Yu.I., Krauklis P.V., Antonov A.N., Frolov K.V., Shardakov I.N., Matveyenko V.P., Anofrikova N.S., Starovoytov E.I., Miker T., Deyvis R.M., Meytsler A., Mitra R., Uayt T., Kolskiy G., Shafer B.V., Axenbax J.D., San R.I. va boshqa ko‘plab olimlar shug‘ullanganlar.

Mazkur muammoni yechishda O‘zbekistonlik olimlardan Raxmatulin X.A., O‘razboyev M.T., Qabulov V.Q., Shirinkulov T.Sh., Muborakov Yo.N., Rashidov T.R., Mardonov B.M., Sultonov K.S., Mirsaidov M.M., Mamatqulov Sh.M., Badalov F.B., Ishanxodjayev A.A., Xojimetov G.X., Mavlonov T.M., Abdusattorov A., Mirzayev I., Safarov I.I., Xudoynazarov X., TeshaeV M.X., Hasanov B.E., Bozorov M.B., Yuldashev Sh.S., Eshmatov X., Abduqodirov S., Bo‘riyev A., Abdurashidov A., O‘sarov M., Boltayev Z.I. va boshqalar muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan silindrsimon hamda shar shaklidagi jismlarda qovushqoq-elastik va akustik to‘lqinlarning difraksiyasi masalalarini, materiallarning reologik xususiyatlarini hisobga olgan holda dinamik zo‘riqishlar va deformatsiya holatini aniqlash usullarini rivojlantirishgan. Ushbu ishlarda asosan elastik muhit ichida joylashgan halqasimon kesimga ega silindrsimon jismlarda elastik to‘lqinlarning sinishi (difraksiyasi) masalasi tadqiq qilingan. Ideal suyuqlik bilan to‘ldirilgan silindrik bo‘shliqda tekis elastik to‘lqin difraksiyasi masalasi uchun maxsus funksiyalar orqali asimptotik yechimlar olingan. Ular kesim shakli halqasimon bo‘lgan silindrsimon jismlarda silindrik to‘lqinlarning ta’siriga oid masalalarni hal etishga e’tibor qaratishgan. Mazkur tadqiqotlar bilan

asosan AQSh, Rossiya, Ukraina va Xitoy olimlari shug'ullanib kelmoqdalar. Ayrim masalalar uchun ma'lum sonli natijalar ham qo'lga kiritilgan. Biroq bo'lakli bir jinsli silindrsimon jismlarda to'lqinlarning difraksiyasini materialning reologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'rganish hozircha o'z yechimini topmagan bo'lib, bu sohada bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Bunday muammolar qatorida bo'lakli bir jinsli dissipativ, bir jinsli bo'lmagan jismlarning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini ifodalovchi relaksatsiya yadrosi va uning parametrlarini tanlash asosida qurilgan turli xil nazariyalar asosida olingan natijalar (taqribiy va aniq) taqqoslanmagan va bu nazariyalarni qo'llash chegarasi ko'rsatilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universiteti "Aniq fanlar" kafedrasining bajarilishi 2022-2025 yillarda mo'ljallangan "Fizika-mexanikaviy jarayonlarni matematik modellashtirish" mavzusidagi dasturi doirasida olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi qovushqoq-elastik muhit ichida joylashgan, ko'ndalang kesimi ellips shaklida bo'lgan to'ldiruvchili silindrsimon jismlarda garmonik to'lqinlarning difraksiyasini to'lqin dinamikasi usullari asosida takomillashtirilgan matematik modelini hamda sonli yechish algoritmini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

materiallarning qovushqoq-elastiklik xossalari inobatga olgan holda, qovushqoq-elastik muhit ichida joylashgan, ellips shaklidagi ko'ndalang kesimga ega, to'ldiruvchili silindrsimon jismlarga to'lqinlarning ta'sirini matematik ifodalash, yechish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish;

materiallarning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini inobatga olgan holda qovushqoq-elastik muhitdagi ko'ndalang kesimi ellips shaklida bo'lgan, to'ldiruvchili silindrsimon jismlarning tebranishlari masalasini matematik ifodasini, yechish uslubiyoti va algoritmlarini yaratish;

qovushqoq-elastik ko'ndalang kesimi ellips shaklida bo'lgan, to'ldiruvchili silindrik jismlarning xos chastotalarini topish va ularga solishtirma baho berish;

qovushqoq-elastik muhit ichida joylashgan, ellips shaklidagi ko'ndalang kesimga ega, to'ldiruvchili silindrsimon qobiqda garmonik to'lqin yuklamasining ta'sirida yuzaga keladigan dinamik zo'riqish-deformatsiyalanish holati o'zgarishiga nisbiy baho berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ko'ndalang kesim shakli ellips bo'lgan to'ldiruvchili silindrsimon jism va silindrsimon bo'shliq ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotning predmeti materiallarning reologik xossalari va geometrik ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda qovushqoq-elastik muhitda joylashgan, ellips shaklidagi ko'ndalang kesimga ega to'ldiruvchili silindrsimon jismlarga to'lqin ta'sirining matematik modelini mukammallashtirish va sonli yechish algoritmini yaratishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasining xususiy hosilali integro-differensial tenglamalarini yechish uchun matematik fizika va deformatsiyalanadigan qattiq jism mexanikasining maxsus

funksiyalaridan foydalanildi, Furye integral almashtirishi usuli qo'llanildi, shuningdek Myuller, Gauss va Rombergning sonli usullari tatbiq etildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marta qovushqoq-elastik muhit bilan to'liq kontaktda bo'lgan deformatsiyalanuvchi, ellips ko'ndalang kesimli, to'ldiruvchili silindrik jismga statsionar (va statsionar bo'lmagan) to'lqinlar ta'sirida hosil bo'ladigan dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini qovushqoq-elastiklik nazariyasining gipotezalari va Lamé integro-differensial tenglamasi asosida o'rganilgan, masalalarni matematik qo'yilishi, yechish uslubiyoti va algoritmi ishlab chiqilgan;

to'lqin sonining ortib borishi bilan xos tebranishlar chastotasining eksponensial qonunga yaqin bo'lgan qonun bilan ortib borishi, muhit Puasson koeffitsienti $0 \leq \nu \leq 0,4$ oraliqda o'zgaranda chastotalarning haqiqiy va mavhum qismlarining 27% gacha monoton o'zgarishi topilgan;

qovushqoq-elastik muhit bilan to'liq kontaktda bo'lgan ellips ko'ndalang kesimli, to'ldiruvchili qobiqning xos chastotalarining haqiqiy va mavhum qismlarining ellipsning katta va kichik o'qlari (radiuslari) nisbatiga bog'liq o'zgarishi (stukturaviy bir jinsli mexanik sistema uchun) logarifmik funksiya qonuni asosida oshib borishi va ko'ndalang kesimi halqasimon silindr chastotasiga asimptotik yaqinlashib borishi aniqlangan;

qovushqoq-elastik muhit bilan to'liq kontaktda bo'lgan ellips ko'ndalang kesimli, to'ldiruvchili qobiqqa statsionar to'lqin yuklanganda uzun to'lqin sohasida maksimal radial va urinma kuchlanishlar farqi 20% gacha bo'lishi topilgan. Statik kuchlanishlar uzun to'lqinlar sohasida dinamik kuchlanishlardan 15 - 20% gacha kam bo'lishi topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan, ko'ndalang kesimi ellips ko'rinishida bo'lgan to'ldiruvchili silindrsimon jismlarda to'lqin ta'siri ostida hosil bo'ladigan kuchlanish va deformatsiya holatlarini aniqlash hamda silindrsimon jismlarning mustahkamligini baholash usullari ishlab chiqilgan;

spektral masala asosida kompleks chastotalarning chegaralangan miqdordagi modalarini topish masalasi hal etilgan;

bo'ylama hamda ko'ndalang yuklamalar ta'sirida deformatsiyalanadigan muhit va elliptik kesimli silindrsimon jismdagi kuchlanishlar taqsimoti aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi spektral hamda chegaraviy masalalarning asosli tarzda qo'yilishi va ularning matematik ifodalarining qat'iy aniqligi, asoslangan yechish usullaridan foydalanish va natijalar aniqligini baholash, shuningdek boshqa matematik qo'yilgan masalalarning yechimlari bilan qiyoslash orqali asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy jihatdan ahamiyatli tomoni shundaki, u deformatsiyalanadigan muhitdagi elliptik kesimli to'ldiruvchili silindrsimon jismlarda to'lqin yuklanishi hamda difraksiya hodisasining nazariy asoslarini rivojlantirishga hissa qo'shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yuklanishlar ta'sirida muhitda va deformatsiyalanuvchi elliptik jismda hosil bo'ladigan dinamik-kuchlanganlik-

deformatsiyalanganlik holatini baholashning yangi qonuniyatlarini o'rganishga imkoniyat berishi hamda ishlab chiqilgan usul va hisoblash dasturlari amaliy masalalarini yechishga va tadqiq qilishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qovushqoq-elastik to'ldiruvchili elliptik qobiqda garmonik to'lqin difraksiyasi ilmiy asoslarini hisobga olgan holda hisoblash usullari va algoritmlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

rezonans holatlarini oldini olishda optimal parametrlarni tanlash orqali energiyani boshqarish usullaridan 2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan № IL-21071166-sonli "Shamolning past tezligi uchun mo'ljallangan vertikal o'qli shamol turbinasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining 2025-yil 2-dekabrda 16033-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, turbina ichidagi plastinkalarning shamol tezligiga va chastotasiga bog'liq bo'lgan rezonans sohalar chegaralari aniqlangan;

qishloq hududlaridagi turar joy binolari infratuzilmasidagi yer osti inshootlarining seysmik mustahkamligini ta'minlash va seysmik to'lqinlar ta'sirida hosil bo'ladigan rezonans sohalarini oldindan aniqlashda 2020-2023 yillarda Urganch davlat universitetida bajarilgan IL-5321091543-sonli "Tojikiston qishloq hududlaridagi turar joy binolari zilzilabardoshligi" (Osiyo taraqqiyot banki Xalqaro loyihasi) mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan. (Urganch davlat universitetining 2025-yil 3-dekabrda 03-215/2-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yer osti inshootlarining kuchlanish amplitudalarini parametrlarni tanlash hisobidan 15% gacha kamaytirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 13 ta ilmiy maqola chop etilgan bo'lib, shulardan 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda nashr qilingan. Ushbu maqolalardan 3 tasi respublika miqyosidagi ilmiy nashrlarda, qolgan 2 tasi esa xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 96 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari shakllantirilgan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Cheksiz muhitda joylashgan qovushqoq-elastik elliptik**

silindrdagi garmonik to'liqlarning difraksiyasi masalalariga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili" deb nomlangan birinchi bobida qovushqoq-elastik elliptik silindrsimon qobiqlarda garmonik to'liq difraksiyasini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarning qisqacha tahlili keltirilgan. Adabiyotlar tahlili asosida quyidagicha xulosa qilingan: hozir ham muhit bilan to'liq kontaktda bo'lgan silindrik jismga garmonik to'liq yuklanishini va difraksiyasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Silindrik jismdagi muhit bilan turli xil kontaktda bo'lganda elliptik jismni maksimal dinamik kuchlanishni optimallashtirish yoki kamaytirish masalasini yechimi oxirigacha yetkazilmagan. Ushbu muammoni hal etishda nazariy asos yaratish, chegaraviy masalaning qo'yilishi, yechish metodikasi, algoritmi va dasturini ishlab chiqish dolzarbligi ko'rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning **"Qovushqoq-elastik muhitdagi to'ldiruvchili elliptik silindrga garmonik to'liq yuklanishi va xos to'liq tarqalishi masalalarining qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmi"** deb nomlangan ikkinchi bobida qovushqoq-elastik muhitdagi to'ldiruvchili elliptik silindrga garmonik to'liq yuklanishi va xos to'liq tarqalishi masalalarini qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmi keltirilgan. Masalalar qovushqoq-elastiklik nazariyasining chiziqli masalasi bo'lib, Grin - Lemb almashtirishi orqali Lamé tenglamasidan ko'chish potentsiallari orqali ifodalangan to'liq tenglamalari olindi va ularning yechimlari Matye funksiyasi orqali ifodalandi.

Faraz qilaylik bir jinsli, izotrop, qovushqoq-elastik muhitda joylashgan to'ldiruvchili elliptik silindrga garmonik (P va SH) to'liq yuklansin. Hisob sxemasi 1a,b - rasmlarda keltirilgan.



1-rasm. To'ldiruvchili elliptik silindrik qobiqning hisob sxemasi.

Elliptik silindr harakatining xususiy hosilali integro-diferensial tenglamasi, qobiq va to'ldiruvchi tenglamalari orqali ifodalanadi

$$(\tilde{\lambda}_j + 2\tilde{\mu}_j)\text{grad div } \vec{u}_j - \tilde{\mu}\text{rotrot } \vec{u}_j + \vec{b}_j = \rho_j \frac{\partial^2 \vec{u}_j}{\partial t^2}, (j=1,2) \quad (1)$$

$$\tilde{\lambda}_j f(t) = \lambda_{0j} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_\lambda^{(i)}(t-\tau) f(\tau) d\tau \right], \quad \tilde{\mu}_j f(t) = \mu_{0j} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_\mu^{(i)}(t-\tau) f(\tau) d\tau \right]$$

bunda $f(t)$ vaqtning ixtiyoriy uzluksiz funksiyasi, $R_\lambda(t-\tau)$ va $R_\mu(t-\tau)$ – qobiqning relaksatsiya yadrolari, λ_{0j}, μ_{0j} – oniy elastiklik modullari.

Agar muhitda suyuqlikli silindrik qobiq joylashgan bo'lsa, u holda harakat tenglamalari quyidagicha bo'ladi

$$(\tilde{\lambda}_1 + 2\tilde{\mu}_1) \text{grad div } \vec{u}_1 - \tilde{\mu} \text{rotrot} \vec{u}_1 + \vec{b}_1 = \rho_1 \frac{\partial^2 \vec{u}_1}{\partial t^2}, \quad (2)$$


$$L\tilde{E}\vec{u} = \frac{(1-v_0^2)}{E_0 h_0} \vec{p} + \rho_0 \frac{(1-v_0^2)}{E_0} \left(\frac{\partial^2 \vec{u}}{\partial t^2} \right), \quad \Delta \phi_0 - \frac{1}{c^2} \ddot{\phi}_0 = 0,$$

$$\tilde{E}f(t) = E_{01} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_E(t-\tau) f(\tau) d\tau \right],$$

$$L = \begin{pmatrix} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + \frac{1-v_0}{2R^2} \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} & \frac{1+v_0}{2R} \frac{\partial^2}{\partial z \partial \theta} & \frac{v_0}{R} \frac{\partial}{\partial z} \\ \frac{1+v_0}{2R} \frac{\partial^2}{\partial z \partial \theta} & \frac{1+v_0}{2} (1+4a) \frac{\partial^2}{\partial z^2} + (1+a) \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} & \frac{1}{R^2} \frac{\partial}{\partial \theta} - a(2-v) \frac{\partial^3}{\partial z^2 \partial \theta} - \frac{a}{R^2} \frac{\partial^3}{\partial \theta^3} \\ \frac{v}{R} \frac{\partial}{\partial z} & \frac{1}{R^2} \frac{\partial}{\partial \theta} - a(2-v) \frac{\partial^3}{\partial z^2 \partial \theta} - \frac{a}{R^2} \frac{\partial^3}{\partial \theta^3} & \frac{1}{R^2} + a \left(\frac{\partial^2}{\partial z^2} + \frac{1}{R^2} \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} \right)^2 \end{pmatrix}.$$

bunda $\vec{u}(u_r, u_\theta, u_z)$ – qobiqning ko'chish vektori;

Yuqorida keltirilganlarni elliptik koordinatalar sistemasida ham ko'rish mumkin, elliptik koordinatalar sistemasida 2-rasmda tasvirlangan ko'rinishda bo'ladi.



2-rasm. Elliptik koordinatalardagi silindr hisob sxemasi.

Qo'yiladigan masala elliptik kordinatalar sistemasida yechiladi. Bu koordinata sistemasini Dekart koordinatalar sistemi bilan orasidagi munosabat quyidagicha:

$$x = cch\xi \cos \eta, \quad 0 \leq \xi < \infty, \quad y = csh\xi \sin \eta, \quad 0 \leq \eta \leq 2\pi, \quad z = z, \quad -\infty < z < \infty, \quad c^2 = a^2 - b^2. \quad (3)$$

Qatlamlar orasida qattiq mahkamlanganlik sharti:

$$\begin{aligned} \sigma_{\xi\xi 1} |_{\Sigma_1} &= \sigma_{\xi\xi 2} |_{\Sigma_1}, \quad \sigma_{\xi\eta 1} |_{\Sigma_1} = \sigma_{\xi\eta 2} |_{\Sigma_1}, \quad \sigma_{\xi z 1} |_{\Sigma_1} = \sigma_{\xi z 2} |_{\Sigma_1}, \\ u_{\xi 1} |_{\Sigma_1} &= u_{\xi 2} |_{\Sigma_1}, \quad \mathcal{G}_{\eta 1} |_{\Sigma_1} = \mathcal{G}_{\eta 2} |_{\Sigma_1}, \quad w_{z 1} |_{\Sigma_1} = w_{z 2} |_{\Sigma_1}. \end{aligned} \quad (4)$$

Σ_2 sirt ham ellips ko'ndalang kesimli sirtida kuchlanishlardan ozod qilingan bo'lsin:

$$\sigma_{\xi\xi 2} |_{\Sigma_2} = 0, \quad \sigma_{\xi\eta 2} |_{\Sigma_2} = 0, \quad \sigma_{\xi z 2} |_{\Sigma_2} = 0. \quad (5)$$

Cheksizlikda to'lqinning so'nish va uning ko'chish amplitudasining chegaralanganini belgilovchi shart qo'yiladi.

Yuqorida keltirilgan (1-rasm) tushuvchi to'lqin qaytuvchi ham bo'ladi. Tushuvchi tekis bo'ylama va ko'ndalang to'lqin potentsiali quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned}\varphi^{(p)} &= \varphi_0 e^{i\alpha(ch\xi \cos\eta \cos\theta_0 + sh\xi \sin\eta \sin\theta_0 - c_p t)}, \\ \psi^{(p)} &= \psi_0 e^{i\beta(ch\xi \cos\eta \cos\theta_0 + sh\xi \sin\eta \sin\theta_0 - c_s t)}, \quad \alpha c_p = \beta c_s = \omega,\end{aligned}\quad (6)$$

Elliptik silindrdagi harakatning vektor ko'rinishdagi tenglamasi xususiyl hosilali integro-differensial tenglama bo'lib qo'yidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$(\tilde{\lambda}_1 + 2\tilde{\mu}_1)\text{grad div } \bar{u}_1 - \tilde{\mu}_1 \text{rot rot } \bar{u}_1 = \rho_1 \frac{\partial^2 \bar{u}_1}{\partial t^2}.$$

Silindrning tashqi sirtida kuchlanishlarni nolga teng bo'lish sharti (5) qo'yiladi. Silindrik jism va muhitni ko'chish vektori quyidagicha bo'ladi:

$$\bar{u}_j = \text{grad } \varphi_j + \text{rot } \bar{\psi}_j, \quad \text{div } \bar{\psi}_j = 0. \quad (7)$$

φ_j - bo'ylama va $\bar{\psi}_j(0, \psi, \chi)$ - ko'ndalang to'lqin potentsiallari quyidagi integro-differensial tenglamalarni qanoatlantiradi:

$$\begin{aligned}\nabla^2(\varphi, \psi, \chi) - \int_{-\infty}^t R_{\varphi, \psi, \chi}(t - \tau) \nabla^2(\varphi(\tau), \psi(\tau), \chi(\tau)) d\tau &= \frac{1}{c_0^2} \frac{\partial^2}{\partial t^2}(\varphi, \psi, \chi), \\ \text{bunda } \nabla^2 &= \left[\frac{1}{J^2} \left(\frac{\partial^2}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2}{\partial \eta^2} \right) + \frac{\partial^2}{\partial z^2} \right], \quad J^2 = \frac{c^2}{2} (ch2\xi - \cos 2\eta)\end{aligned}\quad (8)$$

Vektor ko'rinishdagi (7) ifodani ko'chish komponentalari orqali quyidagicha yozish mumkin:

$$u_\xi = \frac{1}{J} \left(\frac{\partial \varphi}{\partial \xi} - J \frac{\partial \psi}{\partial z} + \frac{\partial \chi}{\partial \eta} \right), \quad u_\eta = \frac{1}{J} \left(\frac{\partial \varphi}{\partial \eta} - \frac{\partial \chi}{\partial \xi} \right), \quad u_z = \frac{\partial \varphi}{\partial z} + \left(\frac{1}{J} \frac{\partial \psi}{\partial \xi} + \frac{1}{2} \frac{c^2 sh 2\xi}{J^3} \psi \right). \quad (9)$$

Xuddi shunday deformatsiya komponentalarini ham ko'chish komponentalari orqali elliptik tipdagi koordinatalarda ifodalash mumkin:

$$\begin{aligned}\varepsilon_{\xi\xi} &= \frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \frac{c^2 sh 2\xi}{2J^2} u_\xi, \quad \varepsilon_{\eta\eta} = \frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\eta, \quad \varepsilon_{zz} = \frac{\partial u_z}{\partial z}, \\ \varepsilon_{\xi\eta} &= \frac{1}{2} \left(\frac{\partial u_\xi}{\partial \eta} + \frac{\partial u_\eta}{\partial \xi} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\xi + \frac{c^2 sh 2\xi}{2J^2} u_\eta \right), \\ \varepsilon_{\xi z} &= \frac{1}{2} \left(\frac{\partial u_\xi}{\partial z} + \frac{1}{aJ} \frac{\partial u_z}{\partial \xi} \right), \quad \varepsilon_{\eta z} = \frac{1}{2} \left(\frac{\partial u_\eta}{\partial z} + \frac{1}{aJ} \frac{\partial u_z}{\partial \eta} \right).\end{aligned}\quad (10)$$

Umumlashgan Guk qonunidan operator kuchlanishlarni ham ko'chishlar yoki deformatsiyalar orqali ifodalash mumkin:

$$\begin{aligned}\sigma_{\xi\xi} &= (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}) \left(\frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \frac{c^2 sh 2\xi}{2J^2} u_\xi \right) + \bar{\lambda} \left(\frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\eta + \frac{\partial u_z}{\partial z} \right), \\ \sigma_{\xi\eta} &= \bar{\mu} \left(\frac{\partial u_\xi}{\partial \eta} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\xi + \frac{\partial u_\eta}{\partial \xi} + \frac{c^2 sh 2\xi}{2J^2} u_\eta \right), \quad \sigma_{\eta z} = \bar{\mu} \left(J \frac{\partial u_\eta}{\partial z} + \frac{1}{J} \frac{\partial u_z}{\partial \eta} \right), \\ \sigma_{\eta\eta} &= (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}) \left(\frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\eta \right) + \bar{\lambda} \left(\frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \frac{c^2 sh 2\xi}{2J^2} u_\xi + \frac{\partial u_z}{\partial z} \right), \\ \sigma_{\xi z} &= \bar{\mu} \left(J \frac{\partial u_\xi}{\partial z} + \frac{1}{J} \frac{\partial u_z}{\partial \xi} \right), \quad \sigma_{zz} = (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}) \frac{\partial u_z}{\partial z} + \bar{\lambda} \left(\frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \frac{c^2 sh 2\xi}{2J^2} u_\xi + \frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\eta \right).\end{aligned}\quad (11)$$

Yuqorida keltirilgan (8) dagi integral had kichik hisoblanadi, shuning uchun $f(t)$ funksiya uchun $f(t) = \psi(t)e^{-i\omega_R t}$ o'rinli bo'ladi. Bu kichik chiziqli tebranishlarga mos keladi. Bunda $\psi(t)$ - vaqtning sekin o'zgaruvchi funktsiyasi, ω_R - haqiqiy kattalik. A.Filatov, R.M.Sunchaliyev tomonidan ishlab chiqilgan muzlatish (zamorajivaniye) usulini qo'llash mumkin bo'ladi. U holda (1) integro-diferensial tenglama quyidagi ko'rinishni egallaydi:

$$\bar{E}f = E[1 - \Gamma^C(\omega_R) - i\Gamma^S(\omega_R)]f \quad (12)$$

bunda, $\tilde{E}_\kappa = E_\kappa(1 - \Gamma_\kappa^*)$, $\tilde{\nu}_\kappa = \nu_\kappa + \frac{1 - 2\nu_\kappa}{2}\Gamma_\kappa^*$, $\Gamma_\kappa^* f(t) = m_\kappa \int_{-\infty}^t \mathcal{D}_{-1/2}^{(\kappa)}(-\beta_\kappa, t - \tau) f(\tau) d\tau$

$$\Gamma^C(\omega_R) = \int_0^\infty R(\tau) \cos \omega_R \tau d\tau, \quad \Gamma^S(\omega_R) = \int_0^\infty R(\tau) \sin \omega_R \tau d\tau \quad - \text{material relaksatsiya}$$

yadrosining mos ravishda kosinus va sinus Furye tasvirlari (ko'rinishlari).

Yuqorida keltirilgan (8) integro-differensial tenglamalar sistemasiga muzlatish usuli qo'llanilsa qo'yidagi ko'rinishni egallaydi:

$$\nabla^2 \begin{pmatrix} \varphi \Gamma_{p\lambda} \\ \psi \Gamma_{s\mu} \\ \chi \Gamma_{s\mu} \end{pmatrix} = \frac{\partial^2}{\partial t^2} \begin{pmatrix} c_{\alpha 0}^{-2} \varphi \\ c_{s 0}^{-2} \psi \\ c_{s 0}^{-2} \chi \end{pmatrix}, \quad (13)$$

bunda $c_{\alpha 0}^2 = (\lambda_0 + 2\mu_0) / \rho$, $c_{s 0}^2 = \mu_0 / \rho$, $\Gamma_{p\lambda} = 1 - \Gamma_\lambda^c(\omega_R) - i\Gamma_\lambda^s(\omega_R)$, $\Gamma_{s\mu} = 1 - \Gamma_\mu^c(\omega_R) - i\Gamma_\mu^s(\omega_R)$.

Endi keltirilgan (13) tenglamalarni qo'yidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\frac{1}{J^2} \left(\frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial \eta^2} \right) = c_{\alpha 0 j}^{-2} \Gamma_{p\lambda j}^{-1} \frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial t^2}, \quad \frac{1}{J^2} \left(\frac{\partial^2 \tilde{\psi}_j}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \tilde{\psi}_j}{\partial \eta^2} \right) = c_{s 0 j}^{-2} \Gamma_{s\mu j}^{-1} \frac{\partial^2 \tilde{\psi}_j}{\partial t^2} \quad (j=1, 2, 3) \quad (14)$$

Elliptik koordinatalarda ifodalangan (ko'chish koordinatalari) tenglamaning garmonik funksiyalar orqali ifodalanuvchi yechimini quyidagi ko'rinishda

izlaymiz: $\varphi_j = R_j e^{i\omega t} \Phi_j(\xi, \eta)$, $\tilde{\psi}_j = R_j e^{i\omega t} \tilde{\Psi}_j(\xi, \eta)$.

U holda yangi koordinatalarda asosiy to'lqin tenglamalari quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\frac{\partial^2 \Phi_j}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \Phi_j}{\partial \eta^2} + k_{1j}^2 (ch^2 \xi - \cos^2 \eta) \Phi_j = 0; \quad \frac{\partial^2 \Psi_j}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \Psi_j}{\partial \eta^2} + k_{2j}^2 (ch^2 \xi - \cos^2 \eta) \Psi_j = 0, \quad (15)$$

bunda $k_{1j}^2 = \frac{\rho_j \omega^2}{(\lambda_{0j} + 2\mu_{0j}) \Gamma_{p\lambda j}} = \frac{\omega^2}{c_{\alpha 0 j}^2 \Gamma_{p\lambda j}}$, $k_{2j}^2 = \frac{\rho_j \omega^2}{\mu_{0j} \Gamma_{s\mu j}} = \frac{\omega^2}{c_{s 0 j}^2 \Gamma_{s\mu j}}$.

Elliptik koordinatalarda berilgan Φ va Ψ yechimini o'zgaruvchilarni ajratish ($F(\xi)G(\eta)$) usuli bilan yechamiz. U holda (15) tenglamalardan bittasini quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$\frac{1}{F(\xi)} \frac{d^2 F}{d\xi^2} + k_1^2 ch^2 \xi = -\frac{1}{G(\eta)} \frac{d^2 G}{d\eta^2} + k_1^2 \cos^2 \eta. \quad (16)$$

Bu ifodani ixtiyoriy A o'zgarmas songa tenglashtirsak quyidagini olamiz:


$$\frac{d^2 F(\xi)}{d\xi^2} + (k_1^2 ch^2 \xi - A) F(\xi) = 0, \quad \frac{d^2 G(\eta)}{d\eta^2} - (k_1^2 \cos^2 \eta - A) G(\eta) = 0. \quad (17)$$

Bu tenglamalar Matye tenglamalaridir, (5)-(6) chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlarini topamiz, 1-yechim quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

$$g_1 = \frac{a \cos[(\omega + 2)\eta + \beta]}{4(1 + \omega)} + \frac{a \cos[(\omega - 2)\eta + \beta]}{4(1 - \omega)}.$$


Qolgan yechimlar ham shunday topilib, umumiy holda Matye funksiyasi orqali ifodalanadi, bu yerda a va ω kompleks kattaliklar hisoblanadi. Matye funksiyalari qator ko'rinishida bo'lib, $q \rightarrow 0$ bo'lganda qator $q \rightarrow O(q^6)$ tartibli aniqlikka ega bo'ladi.

Matye funksiyalarini turlicha ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular yordamida argumentga qiymat berib funksiyaning qiymati topiladi.



3-rasm. Matye funksiyasining ordinata parametri bo'yicha o'zgarishi.

Dissertatsiyaning “**Qovushqoq-elastik muhitda joylashgan ellips ko'ndalang kesimli to'ldiruvchili silindrik qobiqda xos to'lqin tarqalishi**” deb nomlangan uchinchi bobida to'ldiruvchili cheksiz uzun ellips ko'ndalang kesimli silindrik qobiqda xos to'lqin tarqalishi hamda qovushqoq-elastik muhitda joylashgan cheksiz uzun elliptik silindrik qobiqlarning tebranishlari masalasi ko'rilgan. Elliptik qobiqning harakat differensial tenglamasi qovushqoqlik nazariyasining Lamé tenglamasini qanoatlantiradi. Ularning sonli natijalari olingan va tahlil qilingan.



4-rasm. Hisob sxemasi. 1-elliptik silindrik qobiq, 2-to'ldiruvchi.

Bunda ham ko'chish, deformatsiya vektorlari va siljish potentsiallari elliptik koordinatalar sistemasida quyidagicha ifodalanadi:

$$u_\xi = \frac{1}{J} \left(\frac{\partial \varphi}{\partial \xi} + \frac{\partial \psi_z}{\partial \eta} - J \frac{\partial \psi_\eta}{\partial z} \right), \quad u_\eta = \frac{1}{J} \left(\frac{\partial \varphi}{\partial \eta} - \frac{\partial \psi_z}{\partial \xi} + J \frac{\partial \psi_\xi}{\partial z} \right), \quad (18)$$

$$u_z = \frac{\partial \varphi}{\partial z} + \frac{1}{J} \left(\frac{\partial \psi_\eta}{\partial \xi} - \frac{\partial \psi_\xi}{\partial \eta} \right) + \frac{c^2}{2J^3} (sh2\xi\psi_\eta - \sin 2\eta\psi_\xi).$$

$$\varepsilon_{\xi\xi} = \frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \frac{c^2 sh2\xi}{2J^2} u_\xi, \quad \varepsilon_{\eta\eta} = \frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\eta, \quad \varepsilon_{zz} = \frac{\partial u_z}{\partial z}, \quad (19)$$

$$\varepsilon_{\xi\eta} = \frac{1}{2} \left(\frac{\partial u_\xi}{\partial \eta} + \frac{\partial u_\eta}{\partial \xi} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\xi + \frac{c^2 sh2\xi}{2J^2} u_\eta \right),$$

$$\varepsilon_{\xi z} = \frac{1}{2} \left(J \frac{\partial u_\xi}{\partial z} + \frac{1}{J} \frac{\partial u_z}{\partial \xi} \right), \quad \varepsilon_{\eta z} = \frac{1}{2} \left(J \frac{\partial u_\eta}{\partial z} + \frac{1}{J} \frac{\partial u_z}{\partial \eta} \right).$$

Umumlashgan Guk qonunidan operator kuchlanishlarni ham ko'chishlar yoki deformatsiyalar orqali ifodalash mumkin:

$$\sigma_{\xi\xi} = (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}) \left(\frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \frac{c^2 sh2\xi}{2J^2} u_\xi \right) + \bar{\lambda} \left(\frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\eta + \frac{\partial u_z}{\partial z} \right), \quad \sigma_{\xi z} = \bar{\mu} \left(J \frac{\partial u_\xi}{\partial z} + \frac{1}{J} \frac{\partial u_z}{\partial \xi} \right),$$

$$\sigma_{\xi\eta} = \bar{\mu} \left(\frac{\partial u_\xi}{\partial \eta} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\xi + \frac{\partial u_\eta}{\partial \xi} + \frac{c^2 sh2\xi}{2J^2} u_\eta \right), \quad \sigma_{\eta z} = \bar{\mu} \left(J \frac{\partial u_\eta}{\partial z} + \frac{1}{J} \frac{\partial u_z}{\partial \eta} \right), \quad (20)$$

$$\sigma_{\eta\eta} = (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}) \left(\frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\eta \right) + \bar{\lambda} \left(\frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \frac{c^2 sh2\xi}{2J^2} u_\xi + \frac{\partial u_z}{\partial z} \right),$$

$$\sigma_{zz} = (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}) \frac{\partial u_z}{\partial z} + \bar{\lambda} \left(\frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \frac{c^2 sh2\xi}{2J^2} u_\xi + \frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{c^2 \sin 2\eta}{2J^2} u_\eta \right),$$

Bo'ylama va ko'ndalang to'lqin potentsiallari qo'yidagicha to'lqin tenglamasini va bir-biriga bog'liq bo'lgan xususiy hosilali differensial tenglamani qanoatlantiradi:

$$\frac{1}{J^2} \left(\frac{\partial^2 \varphi}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \varphi}{\partial \eta^2} \right) + \frac{\partial^2 \varphi}{\partial z^2} = c_{\alpha 0}^{-2} \Gamma_{p\lambda}^{-1} \frac{\partial^2 \varphi}{\partial t^2}, \quad \frac{1}{J^2} \left(\frac{\partial^2 \bar{\psi}}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \bar{\psi}}{\partial \eta^2} \right) + \frac{\partial^2 \bar{\psi}}{\partial z^2} = c_{s0}^{-2} \Gamma_{s\mu}^{-1} \frac{\partial^2 \bar{\psi}}{\partial t^2}. \quad (21)$$

bunda $\bar{c}_s^2 = c_s^2 \Gamma_\kappa$, $\bar{c}_p^2 = c_p^2 \Gamma_\kappa$, $\nabla^2 = \frac{1}{a^2 J} \left(\frac{\partial^2}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2}{\partial \eta^2} \right) = \frac{1}{\bar{c}_s^2} \frac{\partial^2}{\partial t^2} - \frac{\partial^2}{\partial z^2}$.

Yechimini quyidagi ko'rinishda izlaymiz:

$$\varphi_k(\xi, \eta, z, t) = \sum_{n=0}^{\infty} \Phi_n(\xi, \eta) e^{\pm i\gamma_{p^z} z} e^{-i\omega t}, \quad \psi_{rk}(\xi, \eta, z, t) = \sum_{n=0}^{\infty} \Psi_{nr}(\xi, \eta) e^{\pm i\gamma_{p^z} z} e^{-i\omega t}, \quad (22)$$

$$\psi_{\theta k}(\xi, \eta, z, t) = \sum_{n=0}^{\infty} \Psi_{n\theta}(\xi, \eta) e^{\pm i\gamma_{p^z} z} e^{-i\omega t}, \quad \psi_{zk}(\xi, \eta, z, t) = \sum_{n=0}^{\infty} \Psi_{nz}(\xi, \eta) e^{\pm i\gamma_{p^z} z} e^{-i\omega t}.$$

Agar (22) yechimni (21) ga qo'ysak, qo'yidagicha tenglamalar hosil bo'ladi:

$$\frac{\partial^2 \Phi_j}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \Phi_j}{\partial \eta^2} + k_{1j}^2 (ch^2 \xi - \cos^2 \eta) \Phi_j = 0, \quad \frac{\partial^2 \Psi_{\xi j}}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \Psi_{\xi j}}{\partial \eta^2} + k_{2j}^2 (ch^2 \xi - \cos^2 \eta) \Psi_{\xi j} = 0,$$

$$\frac{\partial^2 \Psi_{\eta j}}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \Psi_{\eta j}}{\partial \eta^2} + k_{2j}^2 (ch^2 \xi - \cos^2 \eta) \Psi_{\eta j} = 0, \quad \frac{\partial^2 \Psi_{zj}}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \Psi_{zj}}{\partial \eta^2} + k_{2j}^2 (ch^2 \xi - \cos^2 \eta) \Psi_{zj} = 0. \quad (23)$$

$$k_{1j}^2 = \frac{\rho_j \omega^2}{\bar{\lambda}_j + 2\bar{\mu}_j} = \frac{\omega^2}{c_{1j}^2 \Gamma_{pj}}, \quad k_{2j}^2 = \frac{\rho_j \omega^2}{\bar{\mu}_j} = \frac{\omega^2}{c_{2j}^2 \Gamma_{sj}}.$$

Elliptik koordinatalarda berilgan Φ_j va Ψ_j yechimni o'zgaruvchilarni ajratish usuli bilan yechib topamiz:

$$\Phi_j(\xi, \eta, z) = \sum_{k=1}^{\infty} F_{\phi_{jk}}(\xi) G_{\phi_{jk}}(\eta) Z_{\phi_{jk}}(z), \quad \Psi_{\xi j}(\xi, \eta, z) = \sum_{k=1}^{\infty} F_{\psi_{\xi jk}}(\xi) G_{\psi_{\xi jk}}(\eta) Z_{\psi_{\xi jk}}(z), \quad (24)$$

